**XALQ DEPUTATLARI ELLIKQAL'A TUMANI KENGASHI QARORI**

**XALÍQ DEPUTATLARÍ ELLIKQALA RAYONLÍQ KEŃESINIŃ SHESHIMI**

2023 - yil 3 - mart VI-54-31-13-194-K/23 Ellikqal'a tuman hokimligi

**Ellikqal'a tumani Adliya bo'limining 16.02.2023 yilgi 3-sonli xulosasiga asosan Xalq deputatlari Ellikqal'a tuman Kengashining 2022 yil 30-dekabr` kungi VI-51-201-13-194-K/22-sonli "2023 yilda Ellikqal'a tumani bo'yicha qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llash to'g'risida"gi qaroriga o'zgartirish kiritish to'g'risida**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumining 2023-yil 9 yanvardagi 1062-sonli qaroriga asosan hamda Ellikqal'a tumani Adliya bo'limining 16.02.2023 yilgi 3-sonli xulosasiga asosan Xalq deputatlari Ellikqal'a tuman Kengashining 2022-yil 30-dekabr kungi VI-51-201-13-194-K/22-sonli "2023 yilda Ellikqal'a tumani bo'yicha qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llash to'g'risida"gi qaroriga o'zgartirish kiritish to'g'risida tuman soliq inspektsiyasi bo'limi boshlig'i N.Abayevning taklifini tinglab muhokam qilib hamda O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24 moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Ellikqal'a tuman Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumining 2023-yil 9 yanvardagi 1062-sonli qaroriga asosan hamda Ellikqal'a tumani Adliya bo'limining 16.02.2023 yilgi 3-sonli xulosasiga asosan Xalq deputatlari Ellikqal'a tuman Kengashining 2022 yil 30-dekabr kungi VI-51-201-13-194-K/22-sonli "2023 yilda Ellikqal'a tumani bo'yicha qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llash to'g'risida"gi qaroriga o'zgartirish kiritish to'g'risida tuman soliq inspektsiyasi bo'limi boshlig'i N.Abayevning taklifi ma'lumot uchun

qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 18.02.2023 yildagi qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Ushbu qaror Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Prezidiumining 2023-yil 9 yanvardagi 1062-sonli qaroriga hamda tuman soliq inspektsiyasi bo'limi boshlig‘i N.Abayevning taklifiga asosan Xalq deputatlari Ellikqal’a tuman Kengashining 2022-yil 30-dekabr kungi VI-51-201-13-194-K/22-sonli qarorining 1 va 2-ilovalariga o‘zgartirish kiritib tasdiqlansin.

4. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 1-ilovaga muvofiq, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv. metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Ellikqal’a tumani davlat soliq inspektsiyasi (N.Abayev)ga Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan belgilangan soliq stavkalari bo‘yicha yer solig‘i to‘lovchilarni o‘z vaqtida xabardor qilish va undirilishini ta’minlash topshirilsin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari B.K.Alimovga tumanda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan egallangan yer uchastkalariga soliq stavkalarining to‘g‘ri qo‘llanilishi bo‘yicha nazorat o‘rnatish vazifasi yuklatilsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini ta’minlash tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari B.K.Alimov va tuman davlat soliq inspektsiyasi boshlig'i i N.Abayevlar zimmalariga yuklatilsin.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'i yicha doimiy komissiya raisi S.Alimov zimmasiga yuklatilsin.

9. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari T.Nurimovaga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish vazifasi yuklansin.

10. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Kengash raisi** **S.S.Avezov**

Xalq deputatlari Ellikqal’a tuman
Kengashining
2023 yil 3 martdagi
VI-54-31-13-194-K/23-son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shahslar bo‘yicha mutloq miqdorda**1gektar** uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari

*ming.so‘mda*

| № | Hududlar nomi | Koeffitsent (0,7 dan 1,3 gacha) | 2023-yil uchun yer solig‘i stavkasi (ming so‘mda) |
|---|---|---|---|
| 1 | A.Navoiy MFY | 0,8 | 20 088 |
| 2 | Abay MFY | 0,8 | 20 088 |
| 3 | Ayozqal’a MFY | 0,7 | 17 577 |
| 4 | Aqchako‘l OFY | 0,8 | 20 088 |
| 5 | Amirobod OFY | 0,8 | 20 088 |
| 6 | Bo‘ston MFY | 0,8 | 20 088 |
| 7 | Guldursin OFY | 0,8 | 20 088 |
| 8 | Guliston OFY | 0,7 | 17 577 |
| 9 | Dumanqal’a MFY | 0,8 | 20 088 |
| 10 | Do‘stlik OFY | 0,8 | 20 088 |
| 11 | Jasorat MFY | 0,8 | 20 088 |
| 12 | Ibn Sino MFY | 0,8 | 20 088 |
| 13 | Iqbol MFY | 0,8 | 20 088 |
| 14 | Istiqlol MFY | 0,8 | 20 088 |
| 15 | Iftixor MFY | 0,8 | 20 088 |
| 16 | Ixlos MFY | 0,8 | 20 088 |
| 17 | Qavatqal’a MFY | 0,8 | 20 088 |
| 18 | Qoshqo‘ra MFY | 0,8 | 20 088 |
| 19 | Qizilqum MFY | 0,7 | 17 577 |
| 20 | Qilchinoq OFY | 0,8 | 20 088 |
| 21 | Qirqqizobod OFY | 0,8 | 20 088 |
| 22 | KichikGuldursin MFY | 0,8 | 20 088 |
| 23 | Koinot MFY | 0,8 | 20 088 |
| 24 | Navbahor MFY | 0,8 | 20 088 |
| 25 | Navoiy OFY | 0,8 | 20 088 |
| 26 | Oqoltin MFY | 0,8 | 20 088 |
| 27 | Paxtachi MFY | 0,8 | 20 088 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 28 | Sarabiy OFY | 0,8 | 20 088 |
| 29 | Saxtiyon ShFY | 0,8 | 20 088 |
| 30 | Tozabog‘ OFY | 0,8 | 20 088 |
| 31 | Toshkent MFY | 0,8 | 20 088 |
| 32 | Tuproqqal’a MFY | 0,7 | 17 577 |
| 33 | Chuqurqoq MFY | 0,7 | 17 577 |
| 34 | Cho‘pon MFY | 0,8 | 20 088 |
| 35 | Shark Yulduzi OFY | 0,7 | 17 577 |
| 36 | Ellikqal’a OFY | 0,8 | 20 088 |
| 37 | Yangi O‘zbekiston MFY | 0,8 | 20 088 |

*Qo‘shimcha: Halq deputatlari shahar hamda tumanlardagi Kengashlari tomonidan yuridik shahslar uchuner solig‘i stavkalarini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesmida tuman (shahar)markazlari uzoq-yaqinligiga qarab 0,7-3,0 kamaytiruvchi yoki ko‘paytiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega.*

Xalq deputatlari Ellikqal’a tuman
Kengashining
2023 yil 3 martdagi
VI-54-31-13-194-K/23-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shahsla bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq ho‘jaligiga mo‘ljallanganerlardan tashqari) mutloq miqdorda**1 kv.metr** uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari

*so‘mda*

| № | Hududlar nomi | Koeffitsent (0,7 dan 1,3 gacha) | 2023-yil uchun yer solig‘i stavkasi (ming so‘mda) |
|---|---|---|---|
| 1 | A.Navoiy MFY | 0,71 | 140,11 |
| 2 | Abay MFY | 0,71 | 140,11 |
| 3 | Ayozqal’a MFY | 0,7 | 138,14 |
| 4 | Aqchako‘l OFY | 0,71 | 140,11 |
| 5 | Amirobod OFY | 0,71 | 140,11 |
| 6 | Bo‘ston MFY | 0,71 | 140,11 |
| 7 | Guldursin OFY | 0,71 | 140,11 |
| 8 | Guliston OFY | 0,7 | 138,14 |
| 9 | Dumanqal’a MFY | 0,7 | 138,14 |
| 10 | Do‘stlik OFY | 0,71 | 140,11 |
| 11 | Jasorat MFY | 0,71 | 140,11 |
| 12 | Ibn Sino MFY | 0,71 | 140,11 |
| 13 | Iqbol MFY | 0,71 | 140,11 |
| 14 | Istiqlol MFY | 0,71 | 140,11 |
| 15 | Iftixor MFY | 0,71 | 140,11 |
| 16 | Ixlos MFY | 0,71 | 140,11 |
| 17 | Qavatqal’a MFY | 0,71 | 140,11 |
| 18 | Qoshqo‘ra MFY | 0,71 | 140,11 |
| 19 | Qizilqum MFY | 0,7 | 138,14 |
| 20 | Qilchinoq OFY | 0,71 | 140,11 |
| 21 | Qirqqizobod OFY | 0,71 | 140,11 |
| 22 | KichikGuldursin MFY | 0,71 | 140,11 |
| 23 | Koinot MFY | 0,71 | 140,11 |
| 24 | Navbahor MFY | 0,71 | 140,11 |
| 25 | Navoiy OFY | 0,71 | 140,11 |
| 26 | Oqoltin MFY | 0,71 | 140,11 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 27 | Paxtachi MFY | 0,71 | 140,11 |
| 28 | Sarabiy OFY | 0,71 | 140,11 |
| 29 | Saxtiyon ShFY | 0,71 | 140,11 |
| 30 | Tozabog‘ OFY | 0,71 | 140,11 |
| 31 | Toshkent MFY | 0,71 | 140,11 |
| 32 | Tuproqqal’a MFY | 0,7 | 138,14 |
| 33 | Chuqurqoq MFY | 0,7 | 138,14 |
| 34 | Cho‘pon MFY | 0,71 | 140,11 |
| 35 | Shark Yulduzi OFY | 0,7 | 138,14 |
| 36 | Ellikqal’a OFY | 0,71 | 140,11 |
| 37 | Yangi O‘zbekiston MFY | 0,71 | 140,11 |

*Qo‘shimcha: Halq deputatlari shahar hamda tumanlardagi Kengashlari tomonidan jismoniy shahslar uchuner solig‘i stavkalarini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesmida tuman (shahar)markazlari uzoq-yaqinligiga qarab 0,7-3,0 kamaytiruvchi yoki ko‘paytiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega.*